

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

2026-YIL
IYUN/6-SON, IV-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

EPOKSID-DIAN VA FENOLFORMALDEGID GIBRID BOG'LOVCHISI ASOSIDA YUQORI YEYILISH VA KORROZIYABARDOSH ANTIFRIKSION QOPLAMALAR YARATISH	10
Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNI BOSHQARISH VA TARTIBGA SOLISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	16
Mamayusupova Dilovarxon, Maxmudaliyeva Manzuraxon, Toyirjonov Shokirjon	
FRANSUZ, RUS VA O'ZBEK TILLARI SPORT TURIZMI TERMINLARINING LEKSIK-SEMANTIK VA LINGVOMADANIY TADQIQI.....	20
Ma'rupova Gulnoz	
МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОЦЕНКЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ХРАНЕНИЯ ПЛОДОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	24
Muratov Abdulaziz Uktamovich	
DIGITAL TRANSFORMATION AND EMERGING TRENDS IN INFORMATION TECHNOLOGY.....	29
Daminova Barno, Esmurodova Zarnigor, Boltayev Javohir, Kuziboyeva Lobar	
FRANSUZ, RUS VA O'ZBEK TILLARI SPORT TURIZMI TERMINLARINING LEKSIK-SEMANTIK VA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI.....	34
Ma'rupova Gulnoz Umarjonovna	
MINTAQA IQTISODIY O'SISHIDA XIZMATLAR SOHASI TARKIBIY O'ZGARISHLARINING STATISTIK TAHLILI: XORAZM VILOYATI MISOLIDA	38
Raximov Alisher Ibragimovich	
KREDIT SKORINGIDA XULQ-ATVOR OMILLARINI BAHOLASH: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY QO'LLANILISHI	45
BekmurodovAbbos Amiriddinovich	
ECONOMETRIC INVESTIGATION OF AGRICULTURAL PRODUCTION ACTIVITIES IN KARAKALPAKSTAN REPUBLIC.....	49
Makhambetova Uringul Reimbaevna	
GETEROKOMPOZIT POLIMER QOPLAMALAR SIRTINING SHAKLLANISHI VA ULARNING PAXTA TOLALARI SIFATIGA TA'SIRINI TADQIQ ETISH	55
Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich	
GRADIENT BOOSTING (XGBOOST) VA TEGISHLILIK FUNKSIYALARIGA TAYANGAN STATISTIK KLASSIFIKATSIYA USULINING SOLISHTIRMA BAHOLANISHI	62
Ergasheva Ma'mura Gayratovna	
QURILISH SOHASIDA KICHIK VA YIRIK BIZNES SUBYEKTLARI INTEGRATSIYASI SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	69
Axmedova Nilufar Shuxratovna	
LARAVEL PLATFORMASIDA NEYROTARMOQLARNI QO'LLASH ORQALI FOYDALANUVCHI XATTI-HARAKATLARINI BASHORAT QILISH VA TAVSIYA TIZIMLARINI YARATISH	74
Jo'rayev To'xtasin, Abdusattarov Odiljon, Boymatov Mexrojiddin, Maxkamov A'zimjon, Nabijonov Abduqodir	
BEHIND THE 30% TARGET: A CONCEPTUAL FRAMEWORK FOR WOMEN'S ACADEMIC LEADERSHIP IN UZBEK UNIVERSITIES	82
Farida Nishanova	
QURILISH SANOATIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH: NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUVLAR	87
Abdullayev Axror Jaxbarovich	
BALIQCILIKDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING OBYEKTIV ZARURIYATI	92
Iskandar Yunusov	



TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI KREDITLASHDAGI BANK KREDIT RISKLARINI PASAYTIRISH YO'LLARI.....	98
Toymuxamedov Ibrohim Rixsiboyevich	
KO'P KVARTIRALI UY-JOY FONDINI BOSHQARISHDA PROFESSIONAL XIZMAT KO'RSATISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEKANIZMLARI	108
Rahimov Qodir Ergashevich	
НИЗКОУГЛЕРОДНАЯ ЭНЕРГЕТИКА КАК НАПРАВЛЕНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ МОДЕРНИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА	115
Расулкулов Жамшидбек Акрамкулович	
ERKIN IQTISODIY ZONALARNING MOHIYATI VA ULARNING PRINSIPLARI	124
Ubaydullayev Muxammadjon, Akbarov Diyorbek	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MEHMONXONA XIZMATLARINI AVTOMATLASHTIRISHNING IQTISODIY AFZALLIKLARI.....	128
Raxmonova Nigina Anvarovna	
EMPLOYEE WELL-BEING IN POST-REFORM UZBEKISTAN: A SYSTEMATIC LITERATURE REVIEW AND RESEARCH AGENDA	132
Farida Nishanova	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MEKANIZMLARI	137
Inobatov Abror Boshlarovich	
REAL SEKTORNING INSTITUTSIONAL TARKIBI VA TRANSFORMATSIYA TENDENSIYALARI.....	144
Isroilova Muhabbat Rustamjon qizi	
ОБЕСПЕЧЕНИЕ РОСТА ЭКОНОМИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА ПРЕДПРИЯТИЯ (НА ПРИМЕРЕ ФИРМЕННЫХ МАГАЗИНОВ «SAG EXPRESS»)	151
Мусаева Шоира Азимовна	
O'ZBEKISTONDA YALPI ICHKI MAHSULOT DINAMIKASINING ICHKI ISTE'MOLGA TA'SIRI	161
Djumayev Zayniddin Axmedovich	
O'ZBEKISTON TASHQI IQTISODIY FAOLIYATIDA KICHIK BIZNES O'RNINI OSHIRISHNING STATISTIK USULLARDAGI TAHLILI.....	166
Yadgarova Nigora Rixsulla qizi	
KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLARNI REAL VAQT REJIMIDA VIZUALIZATSIYA QILISH UCHUN ADAPTIVE M4 GEOMETRIK-PERSEPTUAL AGREGATSIYA ALGORITMI.....	170
Nuraliyev Faxriddin, Hotamov Farhod, Muxamedjonova Zuxra	
АЛГОРИТМ ОПТИМИЗАЦИИ ПРОПУСКНОЙ СПОСОБНОСТИ В РАЗВЕТВЛЁННЫХ ПАССИВНЫХ ОПТИЧЕСКИХ СЕТЯХ (PON).....	175
Киямов Рахматулло Рузиевич	
MARKETING KOMMUNIKATSIYALARI ORQALI HUDUDLARNING INVESTITSION SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISH.....	180
Xolmurotova Diyoraxon, Xoliyorova Shoxista	
OZIQ-OVQAT XAVSIZLIGINI TA'MINLASHDA DAVLAT STRATEGIK ZAXIRALARINING O'RNINI	184
Bazarov Nazirjon, Normurodov Alibek	
O'ZBEKISTONDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA UNI BARTARAF ETISHDA TADBIRKORLIKNING ROLI: IQTISODIY TAHLIL VA TENDENSIYALAR.....	190
Uzakov Sh. Sh.	
MINTAQADA TABIIY KAPITALNI JAMG'ARISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	196
Raximov Faxriddin Shavkatovich	
СОВРЕМЕННЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ УГРОЗЫ ФИНАНСОВОЙ БЕЗОПАСНОСТИ СТРАХОВЫХ КОМПАНИЙ И ПРИЧИНЫ ИХ ВОЗНИКНОВЕНИЯ	201
Петр Ким	



УЧЁТ ВЫБЫТИЯ ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ФИНАНСОВЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ ОРГАНИЗАЦИИ.....	207
Туракулов Шахриёр, Пашаходжаева Дилдора HUDUDIY IQTISODIY O'SISH DRAYVERLARINI KO'P OMILLI REGRESSION TAHLIL ASOSIDA MIQDORIY BAHOLASH (BUXORO VILOYATI TUMANLARI MISOLIDA).....	213
Ergashev Sherali Erali o'g'li NOAN'ANAVIY PUL-KREDIT SIYOSATI INSTRUMENTLARINING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA QISQA MUDDATLI TA'SIRINI EMPIRIK BAHOLASH	217
Djumonov Dilshod Safaroliyevich O'ZBEKISTONDA YALPI ICHKI MAHSULOT DINAMIKASINING ICHKI ISTE'MOLGA TA'SIRI	222
Djumayev Zayniddin Axmedovich JIZZAX VILOYATI KICHIK BIZNES TIZIMINING EMPIRIK MA'LUMOTLAR BAZASI VA TAVSIFIY STATISTIK TAHLILI	227
Atamuratova Gulrux Muzafarovna KIMYO SANOATI KORXONALARIDA DIVERSIFIKATSIYA SAMARADORLIGINI INTEGRAL BAHOLASH VA 2032-YILGACHA PROGNOZLASH.....	232
Razikov Otabek Rustamovich ИССЛЕДОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПАРАМЕТРОВ РАЗВОЛОКНЕНИЯ ПУТАНКИ	240
Одилхонова Нафиса, Атаханов Авазбек SOLIQ BOSHQARMALARIDA AGILE MENEJMENT TAMOYILLARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARINING EMPIRIK-STATISTIK TAHLILI	247
Sayfiyev Jasur Ravshanovich O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT XARIDLARI TIZIMIDA RAQOBAT MUHITI VA SHAFFOFLIKNI TA'MINLASHNING MOLIYAVIY-IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	253
Rizoqulova Elnora Otabek qizi YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING MINTAQAVIY OMILLARI.....	260
Ergashev Erkin Iroqovich QULOQ CHANOG'I VA YUZ YON TASVIRI ASOSIDA SHAXSNI IDENTIFIKATSIYALASH.....	264
Mamatov Narzillo, Samijonov Abdurashid, Abdullaeva Barno, Usarov Jurabek ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРИМЕНЕНИЯ РОТОРНО-УПРАВЛЯЕМЫХ СИСТЕМ (РУС) И ВИНТОВЫХ ЗАБОЙНЫХ ДВИГАТЕЛЕЙ (ВЗД) ПРИ БУРЕНИИ НЕФТЯНЫХ И ГАЗОВЫХ	271
Жахонгир Эркин угли Абдиганиев, Шерали Халлокович Умедов KO'KRAK BEZI SARATONINING MOLEKULYAR SUBTIPLARINI PROGNOZ QILISHDA MULTIPARAMETRIK MRT VA SUN'IY INTELLEKT MODELLARINING INTEGRATSIYASI	282
Sulaymanov Dilshod, Alikariyev Isroiljon ERKIN IQTISODIY HUDUDLAR VA KICHIK SANOAT ZONALARINI TASHKIL ETISH HAMDA TAKOMILLASHTIRISH ("URGUT" ERKIN IQTISODIY ZONASI MISOLIDA)	288
Yazdanov Mirjaxon G'ayrat o'g'li IQLIM O'ZGARISHLARINING HUDUD BARQAROR RIVOJLANISHIGA TA'SIRINI BAHOLASH REYTINGI: NAZARIY-USLUBIY YONDASHUV	294
Madenova Elmira Nizamatdinovna TIJORAT BANKLARI FOYDASINI SOLIQQA TORTISHNING NAZARIY JIHATLARI	300
Turanov M. Sh. BELAZ YUK MASHINALARINING SHARLI O'Q DETALLARDAGI KUCHLANISH KONSENTRATSIYASINING TAHLILI VA MUSTANKAMLIKKA TA'SIRI.....	306
Yusupov Abdulaziz, Pushanov Akbar, Jo'raqulov Ixtiyor, Jaxonov Shoxrux ОЧИСТИТЕЛЬНАЯ СЕКЦИЯ ХЛОПКООЧИСТИТЕЛЬНОГО АГРЕГАТА С НАКЛОННЫМИ КОЛКАМИ НА КОЛКОВЫХ БАРАБАНАХ.....	311
Эргашев Рахимжон, Мавлянов Айбек, Росулов Рузимурод SUV-SUV TIZIMIDA ISSIQLIK ALMASHINISH JARAYONINI JADALLASHTIRISH	316
Karabayev Asatilla, Yo'liiyev Shukurali, Abduqayumov Jamoliddin	



HUDUDLARDA AGROTURISTIK SALOHİYATNI BAHOLASH USLUBI	323
Qodirov Azizjon, Rustamov Adhamjon, Jumayeva Ozoda	
ROI-WEIGHTED PRIMARY FRAME FILTERING FOR EFFICIENT DEEP VIDEO SURVEILLANCE	329
Shohruh Begmatov, Mukhriddin Arabboev, Akhram Nishanov	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MINTAQAVIY RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDA SUN'IY INTELEKTDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	340
Sharipova Munojot Murodullayevna	
ЭКОНОМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ДОХОДОВ И РАСХОДОВ ПО ФИНАНСОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ОРГАНИЗАЦИИ	348
Баходиров Азизжон Баходирович, Пашаходжаева Дилдора Джабборхоновна	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA XARAJATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	353
Isomuxamedov Akbarjon Bahodir o'g'li	



KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA XARAJATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

Isomuxamedov Akbarjon Bahodir o'g'li

Namangan davlat texnika universiteti o'qituvchisi,
mustaqil izlanuvchi

E-mail: iakbarjon@gmail.com

ORCID: 0009-0004-2630-3840



Annotatsiya. Mazkur maqolada kichik biznes subyektlarida xarajatlar hisobini tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritilgan. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik normalari, IFRS for SMEs xalqaro standarti va mahalliy BHMS talablari asosida xarajatlar hisobidagi muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etishning ilmiy asoslangan yo'nalishlari taklif etilgan. Xarajatlarni aniq tasniflash, analitik hisobvaraqlar tizimini kengaytirish, budjetlashtirish bilan integratsiya qilish, CVP-tahlilni qo'llash, javobgarlik markazlari bo'yicha hisob yuritish, raqamli texnologiyalardan foydalanish va ichki nazoratni kuchaytirish yo'nalishlari bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari kichik biznes subyektlari uchun maxsus moslashtirilgan.

Kalit so'zlar: xarajatlar hisobi, kichik biznes, tannarx, budjetlashtirish, javobgarlik markazi, CVP-tahlil, IFRS for SMEs, ichki nazorat, raqamli hisob, boshqaruv hisobi.

Abstract. This article examines the theoretical and practical aspects of organizing cost accounting in small business entities. The study identifies problems in cost accounting based on the current legislation of the Republic of Uzbekistan, the IFRS for SMEs international standard, and national NAS requirements, and proposes scientifically grounded directions for their solution. Practical recommendations have been developed in such areas as accurate cost classification, expansion of the analytical accounts system, integration with budgeting, application of CVP analysis, accounting by responsibility centers, use of digital technologies, and strengthening internal control. The research results are specially adapted for small business entities.

Keywords: cost accounting, small business, cost price, budgeting, responsibility center, CVP analysis, IFRS for SMEs, internal control, digital accounting, management accounting.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты организации учета затрат в субъектах малого бизнеса. В исследовании на основе действующих норм законодательства Республики Узбекистан, международного стандарта IFRS for SMEs и требований национальных НСБУ выявлены проблемы учета затрат и предложены научно обоснованные направления их устранения. Разработаны практические рекомендации по таким направлениям, как точная классификация затрат, расширение системы аналитических счетов, интеграция с бюджетированием, применение CVP-анализа, ведение учета по центрам ответственности, использование цифровых технологий и усиление внутреннего контроля. Результаты исследования специально адаптированы для субъектов малого бизнеса.

Ключевые слова: учет затрат, малый бизнес, себестоимость, бюджетирование, центр ответственности, CVP-анализ, IFRS for SMEs, внутренний контроль, цифровой учет, управленческий учет.

KIRISH

Bozor munosabatlari sharoitida korxonalarining moliyaviy barqarorligi ko'p jihatdan xarajatlarni to'g'ri hisobga olish, ularni nazorat qilish va samarali boshqarishga bog'liq. Xarajatlar korxonalar faoliyatining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, mahsulot tannarxi, foyda, rentabellik, soliq bazasi va investitsion qarorlarning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda mamlakatda faoliyat yuritayotgan korxonalar sonining 85 foizidan ortig'ini kichik biznes subyektlari tashkil etib, ularning iqtisodiyotdagi yalpi qo'shilgan qiymati ulushi 54,3 foizga yetgan. Bunday keng miqyosdagi iqtisodiy faol subyektlar guruhida xarajatlar hisobining to'g'ri tashkil etilishi nafaqat alohida korxonalar samaradorligi, balki makroiqtisodiy barqarorlik nuqtai nazaridan ham muhimdir.

O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'RQ-404-son Qonunida buxgalteriya

hisobini tashkil etish, yuritish va moliyaviy hisobotni tuzish sohasidagi munosabatlar tartibga solingan [1]. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomda mahsulot, ishlar va xizmatlarni ishlab chiqarish hamda sotish xarajatlari tarkibi belgilangan [2]. Ammo amaliyot shuni ko'rsatadiki, kichik biznes subyektlarining aksariyatida ushbu normalarning to'liq ijrosi yetarlicha ta'minlanmagan.

Amaliyotda kuzatilayotgan asosiy holatlardan biri shundaki, kichik biznes subyektlarida: 1) xarajatlar iqtisodiy mazmuniga ko'ra to'liq ajratilmaydi; 2) boshqaruv hisobi va budjetlashtirish zaif rivojlangan; 3) soliq hisobida chegiriladigan va chegirilmaydigan xarajatlar o'rtasidagi farq noaniq qoladi; 4) raqamli hisob tizimlaridan samarali foydalanish ko'nikmasi cheklangan. Natijada tannarx shakllanishida noaniqliklar yuzaga kelib, moliyaviy natijalar to'liq aks etmasligi mumkin va boshqaruv qarorlari asoslanmagan holda qabul qilinadi.

Tadqiqotning maqsadi — kichik biznes subyektlarida xarajatlar hisobini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini ilmiy jihatdan asoslash, amaldagi muammolarni tizimli tahlil qilish va kichik biznes sharoitiga moslashtirilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- xarajatlar hisobining iqtisodiy mazmunini yoritish va zamonaviy tasnif tizimini asoslash;
- kichik biznes subyektlarida xarajatlar hisobidagi dolzarb muammolarni aniqlash;
- xarajatlar hisobi va budjetlashtirish o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni o'rnatish;
- CVP-tahlil va javobgarlik markazlari tizimini kichik biznesga moslashtirish;
- raqamli texnologiyalar va ichki nazorat tizimini kuchaytirish bo'yicha takliflar berish.

Mavjud adabiyotlarda xarajatlar hisobi ko'pincha yirik va o'rta korxonalar kontekstida ko'rib chiqiladi. Ushbu tadqiqot kichik biznes subyektlari uchun maxsus moslashtirilgan, BHMS 21 hisobvaraqlar rejasi va IFRS for SMEs talablari bilan uyg'unlashtirilgan kompleks yondashuv taklif etishi bilan ajralib turadi [3; 5]. Xususan, "reja — haqiqat — chetlanish — qaror" algoritmi va 9431/9611 analitik hisobvaraqlar tizimi birinchi marta kichik biznes kontekstida ilmiy asoslangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xarajatlar hisobini samarali tashkil etish korxonalarda tannarxni to'g'ri aniqlash, moliyaviy natijalarni haqqoniy aks ettirish va boshqaruv qarorlarini asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy manbalarda xarajatlarni iqtisodiy mazmuni, tannarxga kiritilishi, ishlab chiqarish hajmiga bog'liqligi va javobgarlik markazlari bo'yicha tasniflash boshqaruv hisobi tizimining asosiy yo'nalishlari sifatida qaraladi. Xalqaro amaliyotda kichik biznes subyektlari uchun soddalashtirilgan, lekin yetarli axborot beruvchi hisob tizimini shakllantirish, xarajatlarni budjetlashtirish bilan bog'lash, CVP-tahlil orqali zararsizlik nuqtasini aniqlash hamda ichki nazorat mexanizmlarini kuchaytirish muhim yo'nalishlar sifatida e'tirof etiladi. C. Drury, S. M. Datar, M. V. Rajan va J. L. Zimmerman tadqiqotlarida xarajatlarni boshqarish, budjet nazorati, javobgarlik markazlari va qaror qabul qilishda hisob axborotidan foydalanish masalalari keng yoritilgan. Shu bilan birga, mavjud adabiyotlarda ushbu yondashuvlar ko'proq yirik va o'rta korxonalar misolida tahlil qilingan bo'lib, ularni kichik biznes subyektlari sharoitiga moslashtirish alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanilgan: mantiqiy tahlil va sintez usuli, taqqoslash usuli, guruhlash va tasniflash usuli, induksiya va deduksiya, monografik kuzatish, iqtisodiy-matematik tahlil.

Tadqiqot uchun quyidagi asosiy manbalar ishlatilgan: O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari (LEX.UZ bazasi); O'zbekiston Respublikasi milliy buxgalteriya hisobi standartlari (BHMS); IFRS Foundation tomonidan nashr etilgan IFRS for SMEs Accounting Standard; O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari (Stat.uz); xalqaro ilmiy nashrlar va monografiyalar.

Tadqiqot O'zbekiston qonunchiligi doirasida faoliyat yurituvchi kichik biznes subyektlariga — mas'uliyati cheklangan jamiyatlar, xususi korxonalar, oilaviy korxonalar — qaratilgan bo'lib, savdo, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohaslarini qamrab oladi. Tadqiqot nazariy-metodologik tahlil xarakteriga ega bo'lib, empirik ma'lumotlar asosida umumlashtirilgan xulosalar berilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xarajatlar — korxonaning mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish, xizmat ko'rsatish, sotish va boshqaruv faoliyati jarayonida sarflangan iqtisodiy resurslar qiymatidir. IFRS konseptual asoslariga muvofiq, xarajatlar moliyaviy natija bilan bog'liq holda tan olinishi moliyaviy hisobotning ishonchliligini ta'minlaydi [4].



IFRS for SMEs standarti kichik biznes subyektlari uchun soddalashtirilgan, ammo to'liq axborot beruvchi hisob tizimini tavsiya etadi [5]. Ushbu standart doirasida xarajatlar quyidagi asosiy belgilar bo'yicha tasniflanishi lozim:

1-jadval.

Kichik biznes subyektlarida xarajatlarning tasnif tizimi¹

Tasnif belgisi	Xarajat turlari	Boshqaruv ahamiyati
Iqtisodiy mazmuniga ko'ra	Moddiy, mehnat haqi, amortizatsiya, boshqalar	Xarajat tarkibini tahlil qilish
Tannarxga kiritilishiga ko'ra	Bevosita va bilvosita xarajatlar	Kalkulyatsiyani aniqlash
Hajmga bog'liqligiga ko'ra	O'zgaruvchan, doimiy, aralash	CVP-tahlil o'tkazish
Hisobot davriga ko'ra	Joriy va kelgusi davr xarajatlari	Davrni to'g'ri belgilash
Soliq hisobiga ko'ra	Chegiriladigan va chegirilmaydigan	Soliq bazasini aniqlash
Javobgarlik markaziga ko'ra	Bo'lim, loyiha, mas'ul shaxs kesimida	Nazorat va mas'uliyat

1-jadvalda keltirilgan tasnif tizimi kichik biznes subyekti buxgalteriyasida bir vaqtning o'zida moliyaviy hisob, soliq hisobi va boshqaruv hisobi ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston kichik biznes subyektlari amaliyotini o'rganish quyidagi tizimli muammolarni aniqladi. Ushbu muammolarning barchasi o'zaro bog'liq: metodologik kamchiliklar soliq hisobida noaniqliklar yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin, boshqaruv hisobining yetarli darajada rivojlanmaganligi esa qaror qabul qilish jarayonining asoslanganlik darajasini pasaytiradi.

Ularni uchta asosiy guruhga ajratish mumkin:

2-jadval.

Kichik biznes subyektlarida xarajatlar hisobidagi asosiy muammolar²

Muammo guruhi	Aniq muammo	Oqibati
Hisob metodologiyasi	Bevosita va bilvosita xarajatlar noto'g'ri taqsimlanadi	Tannarxning buzilishi
Hisob metodologiyasi	Davr xarajatlari mahsulot tannarxiga qo'shib yuboriladi	Foyda ko'rsatkichining oshirib ko'rsatilishi
Soliq-hisob muvofiqi	Chegirilmaydigan xarajatlar ajratilmaydi	Soliq bazasining noto'g'ri hisoblanishi
Boshqaruv hisobi	Budjet ko'rsatkichlari bilan solishtirilmaydi	Nazorat tizimining zaifligi
Boshqaruv hisobi	Javobgarlik markazlari belgilanmagan	Mas'uliyat chegaralarining aniq belgilanmaganligi
Texnologik jihat	Raqamli tizimlar tahliliy axborot bermaydi	Qaror qabul qilishda kechikish

21-son BHMSning 2025-yildagi yangi tahriri kichik biznes subyektlari uchun hisobvaraqlar rejasini belgilaydi. Tadqiqot natijasida quyidagi analitik hisobvaraqlarni joriy etish taklif etildi:

3-jadval.

Kichik biznes subyektlari uchun taklif etilayotgan analitik hisobvaraqlar tizimi³

Hisobvaraqlar	Nomi	Maqsadi
9431 (yangi)	Chegirilmaydigan operatsion xarajatlar	Soliq bazasidan chiqariladigan summalar
9611 (yangi)	Chegirilmaydigan foiz xarajatlari	Soliq bazasiga ta'sir qilmaydigan foizlar

9431 va 9611 analitik hisobvaraqlarini joriy etish soliq va moliyaviy hisob ma'lumotlarini o'zaro moslashtirish imkonini beradi. Bu kichik biznes subyektlari uchun alohida ahamiyatga ega, chunki ularda hisob xodimi ko'pincha bir vaqtda moliyaviy hisob, soliq hisobi va boshqaruv hisobini yuritadi.

1 Manba: muallif tomonidan ilmiy adabiyotlar, BHMS talablari va boshqaruv hisobi yondashuvlari asosida ishlab chiqilgan.

2 Manba: muallif tomonidan ilmiy adabiyotlar, BHMS talablari va boshqaruv hisobi yondashuvlari asosida ishlab chiqilgan.

3 Manba: muallif tomonidan ilmiy adabiyotlar, BHMS talablari va boshqaruv hisobi yondashuvlari asosida ishlab chiqilgan.

Tadqiqotda xarajatlar hisobini budjetlashtirish bilan bog'lashning ilmiy asoslangan algoritmi ishlab chiqildi. Ushbu algoritmnining kichik biznes uchun amalda qo'llanilishi quyidagicha:

- 1-bosqich — REJA: har bir xarajat turi bo'yicha oylik va choraklik budjet belgilanadi: moddiy, mehnat, umumishlab chiqarish, sotish, ma'muriy xarajatlar kesimida;
- 2-bosqich — HAQIQAT: buxgalteriya hisobida amaldagi xarajatlar hujjatlar asosida qayd etiladi;
- 3-bosqich — CHETLANISH: reja va haqiqat o'rtasidagi absolyut va foizli farq hisoblanadi, qulay va noqulay chetlanishlar ajratiladi;
- 4-bosqich — SABAB TAHLILI: noqulay chetlanishlarning kelib chiqish sabablari aniqlanadi: narx omili, miqdor omili, samaradorlik omili;
- 5-bosqich — MAS'UL MARKAZ: qaysi bo'lim yoki mas'ul shaxs chetlanishga sabab bo'lganligi belgilanadi;
- 6-bosqich — QAROR: xarajetni kamaytirish, budjetni qayta ko'rish yoki mas'uliyatni oshirish bo'yicha boshqaruv qarori qabul qilinadi.

Bu yondashuv buxgalteriya hisobini faqat hisobot tuzish vositasidan boshqaruv axboroti manbaiga aylantiradi. Kichik biznes uchun bu ayniqsa muhim, chunki ular yirik kompaniyalarga xos murakkab ERP tizimlaridan foydalana olmasdan, oddiy elektron jadvallar orqali ham ushbu algoritmnini amalga oshira oladi.

CVP-tahlil (Cost — Volume — Profit, ya'ni xarajat — hajm — foyda) kichik biznes subyektlari uchun eng qulay boshqaruv vositalaridan biri. Tadqiqot natijasida CVP modelining kichik biznesga moslashtirilgan qo'llanma ko'rsatkichlari aniqlandi:

4-jadval.

CVP-tahlilning kichik biznes subyektlari uchun asosiy ko'rsatkichlari⁴

Ko'rsatkich	Formula	Boshqaruv qarori uchun ahamiyati
Zararsizlik nuqtasi (ZN)	$ZN = \text{Doimiy xarajatlar} \div \text{Marjinal foyda koeffitsienti}$	Minimal sotish hajmini aniqlash
Marjinal foyda (MF)	$MF = \text{Tushum} - \text{O'zgaruvchan xarajatlar}$	Qaysi mahsulot foydaliroq ekanini bilish
Xavfsizlik chegarasi (XCh)	$XCh = \text{Amaldagi tushum} - \text{ZN tushumi}$	Zararlanish xavfini baholash
Operatsion leveraj	$OL = MF \div \text{Operatsion foyda}$	Doimiy xarajatlar riskini o'lchash
Maqsadli foyda uchun hajm	$V = (\text{Doimiy xar.} + \text{Maqsadli foyda}) \div \text{MF \%}$	Foyda rejasini tuzish

CVP modelining kichik biznes uchun afzalligi shundaki, u murakkab dasturiy ta'minot talab etmaydi va oddiy elektron jadvalda hisoblanadi. Zararsizlik nuqtasini bilgan korxonalar rahbari narxlash, chegirma berish va ishlab chiqarish hajmini o'zgartirish bo'yicha asoslangan qarorlar qabul qila oladi.

Yirik korxonalarda keng qo'llaniladigan javobgarlik markazlari konsepsiyasi kichik biznes uchun ham moslashtirilishi mumkin. Kichik korxonada odatda uch-to'rtta asosiy markaz bo'ladi:

5-jadval.

Kichik biznes subyektlari uchun javobgarlik markazlari modeli⁵

Javobgarlik markazi	Mas'ul shaxs	Nazorat qilinadigan xarajatlar	Hisobot davri
Ishlab chiqarish (sex)	Sex boshlig'i	Xomashyo, mehnat, umumsex xarajatlari	Oylik
Sotish bo'limi	Savdo menejeri	Transport, reklama, komissiya	Oylik
Ta'minot bo'limi	Ta'minot mudiri	Xarid narxi, yetkazib berish	Choraklik
Ma'muriy boshqaruv	Direktor / Bosh buxgalter	Ijara, kommunal, ma'muriy xarajatlar	Oylik

Har bir markaz bo'yicha xarajat limiti, reja ko'rsatkichi va amaldagi natija alohida kuzatiladi. Bu ortiqcha xarajatlarni tezda aniqlash va mas'uliyatni oshirish imkonini beradi. Kichik biznes uchun bu tizim qog'oz yoki elektron jadval shaklida ham samarali ishlaydi.

Tadqiqot natijalarini xalqaro amaliyot va O'zbekiston sharoiti bilan qiyosiy tahlil qilish bir qancha muhim xulosalar chiqarishga imkon berdi.

Birinchiidan, IFRS for SMEs standarti kichik biznes uchun soddalashtirilgan moliyaviy hisobot tizimini tavsiya etadi, ammo xarajatlar tasnifi va boshqaruv hisobi borasida aniq ko'rsatmalar bermaydi. Tadqiqotda taklif etilayotgan yondashuv ushbu bo'shliqni to'ldirib, mahalliy qonunchilik (BHMS 21, 54-son Nizom) va

4 Manba: muallif tomonidan ilmiy adabiyotlar, BHMS talablari va boshqaruv hisobi yondashuvlari asosida ishlab chiqilgan.

5 Manba: muallif tomonidan ilmiy adabiyotlar, BHMS talablari va boshqaruv hisobi yondashuvlari asosida ishlab chiqilgan.



xalqaro standartlar (IFRS for SMEs) talablarini bir-biri bilan uyg'unlashtiradi.

Ikkinchidan, xalqaro amaliyotda keng qo'llaniladigan Activity-Based Costing (ABC) metodologiyasi kichik biznes uchun ortiqcha murakkablikni talab etadi. Shu sababli tadqiqotda ABC o'rniga soddalashtirilgan, ammo samarali "reja — haqiqat — chetlanish — qaror" algoritmi taklif etilgan. Bu kichik korxonalar uchun ham amaliy, ham moliyaviy jihatdan qulay yechimdir.

Uchinchidan, O'zbekistonda kichik biznes subyektlari buxgalteriya hisobini yuritishda asosan 1C:Buxgalteriya va shunga o'xshash mahalliy dasturlardan foydalanadi. Tadqiqot natijasida aniqlangan muammo shundaki, dastur imkoniyatlari to'liq ishlatilmaydi — tahliliy hisobvaraqlar kiritilmaydi, budget moduli ulashtirilmaydi. Bu esa mavjud raqamli infratuzilmani yangilashsiz, faqat foydalanish madaniyatini oshirish orqali samaradorlikni oshirish mumkinligini ko'rsatadi.

Zamonaviy sharoitda xarajatlar hisobini raqamli dasturlarsiz samarali tashkil etish qiyin. Tadqiqot natijalariga ko'ra, kichik biznes subyektlari uchun raqamli hisob tizimida quyidagi funksiyalar mavjud bo'lishi zarur:

- xarajatlarni avtomatik guruhlash va tasnif qilish;
- budget va haqiqat ko'rsatkichlarini real vaqt rejimida solishtirish;
- noqulay chetlanishlar bo'yicha avtomatik ogohlantirish;
- mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish moduli;
- soliq hisobiga ta'sir qiluvchi xarajatlarni alohida ajratib ko'rsatish;
- mas'ul shaxslar kesimida tahliliy hisobot shakllantirish.

Ichki nazorat tizimini kuchaytirish masalasida tadqiqot "xarajatlar nazorat kartasi" konsepsiyasini taklif etadi. Bu karta har oy bosh buxgalter va rahbar tomonidan imzolanib, xarajat hujjatlarining asoslanganligini, shartnoma va hisob-fakturalar mosligini, xarajat limitlariga rioya etilishini va tannarxga noto'g'ri kiritilgan xarajatlarning yo'qligini tasdiqlaydi.

Ushbu tadqiqot nazariy-metodologik tahlil xarakteriga ega bo'lib, asosiy cheklov sifatida empirik ma'lumotlar — anketa so'rovi, moliyaviy hisobot tahlili — asosida miqdoriy tasdiqlashning yo'qligi ko'rsatilishi mumkin. Kelajakdagi tadqiqotlarda quyidagi yo'nalishlar muhim ahamiyatga ega bo'ladi:

O'zbekistonning turli tarmoqlardagi kichik biznes subyektlarida — savdo, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish — taklif etilgan yondashuvlarni sinovdan o'tkazish;

"Reja — haqiqat — chetlanish — qaror" algoritmining samaradorligini raqamli ko'rsatkichlar orqali o'lchash; kichik biznes uchun mo'ljallangan xarajatlar hisobi dasturiy ta'minotini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish; kichik biznes subyektlarida ichki nazorat tizimining samaradorligini baholash metodikasini ishlab chiqish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xarajatlar hisobini takomillashtirish kichik biznes subyektlari moliyaviy boshqaruvining strategik yo'nalishlaridan biridir. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

Kichik biznes subyektlarida xarajatlar hisobidagi muammolar uch guruhda to'planadi: hisob metodologiyasi — bevosita/bilvosita xarajatlarni noto'g'ri ajratish, soliq-hisob muvofiqi — chegirilmaydigan xarajatlarni ajratmaslik va boshqaruv hisobining zaifligi — budget nazorati yo'qligi.

BHMS 21 hisobvaraqlar rejasiga 9431 va 9611 analitik hisobvaraqlarini qo'shish soliq va moliyaviy hisobni bir vaqtda to'g'ri yuritish imkonini beradi, bu esa kichik biznes uchun amaliy va samarali yechimdir.

"Reja — haqiqat — chetlanish — qaror" algoritmi kichik biznesda murakkab ERP tizimlarisiz ham samarali boshqaruv hisobini tashkil etish imkonini beradi.

CVP-tahlil kichik biznes rahbarlariga zararsizlik nuqtasini, xavfsizlik chegarasini va operatsion leverajni tezda hisoblash, narxlash va ishlab chiqarish hajmi bo'yicha asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Javobgarlik markazlari bo'yicha hisob kichik biznesda ham muvaffaqiyatli qo'llanilishi mumkin; to'rtta asosiy markaz — ishlab chiqarish, sotish, ta'minot, ma'muriy boshqaruv — doirasida nazorat va mas'uliyat tizimi yaratiladi.

Raqamli hisob tizimlari va ichki nazorat kartasi birgalikda xarajatlar ustidan tizimli nazoratni ta'minlaydi, inson omili ta'sirida yuzaga keladigan noaniqliklar hamda moliyaviy yo'qotishlarni kamaytiradi.

Taklif etilgan yondashuvlar amaliyotga tatbiq etilganda quyidagi natijalar kutiladi: xarajatlar hisobining aniqligi oshishi; mahsulot tannarxining to'g'ri shakllanishi; foyda va rentabellik ko'rsatkichlarining real aks etishi; soliq bazasining aniq hisoblanishi; ortiqcha xarajatlarning qisqarishi; budget intizomining mustahkamlanishi va ichki nazorat samaradorligining oshishi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'RQ-404-son Qonuni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/ru/docs/-2931253>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizom. <https://lex.uz/docs/-264422>
3. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti, 21-son BHMS "Xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma", ro'yxat raqami 3593, 27.12.2024. <https://lex.uz/uz/docs/-7282737>
4. IFRS Foundation. Conceptual Framework for Financial Reporting. London: IFRS Foundation, 2018.
5. IFRS Foundation. IFRS for SMEs Accounting Standard. 3rd ed. London: IFRS Foundation, 2025.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasida yalpi ichki mahsulot, 2024-yil yakunlari bo'yicha dastlabki ma'lumotlar. // stat.uz
7. Drury, C. Management and Cost Accounting. 10th ed. Boston: Cengage Learning, 2018.
8. Datar, S. M., Rajan, M. V. Horngren's Cost Accounting: A Managerial Emphasis. 16th ed. Boston: Pearson, 2018.
9. Zimmerman, J. L. Accounting for Decision Making and Control. 10th ed. New York: McGraw-Hill Education, 2020.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100